

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INTERFAOL USUL ORQALI TA`LIM BERISH

Otajonov J.M.

FarDU, Maktabgacha ta`lim kafedrasи katta o‘qituvchisi (PhD)

Ahmadjonova A.D.

FarDU, 1 kurs magistranti

E-mail: otajonov.jamshidbek@mail.ru

Annotasiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim tashkilotlarida mashg‘ulot o‘tishning asosiy shartlaridan biri uning sifatida barcha bosqichlarida o‘qitishning interfaol usullaridan foydalangan holda bolalarning aqliy faoliyatini yanada rivojlantirish jarayoni yiritilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol texnologiyalar, javobgarlik hissi? o‘z-o‘ziga tanqidiy munosabat, ta`lim jarayoni, muloqot, bolalar, maktabgacha ta`lim tashkiloti, metod, usul, mashg‘ulot, rasm, guruh.

TEACHING PRESCHOOL CHILDREN THROUGH INTERACTIVE METHOD

Annotation. In this article, the process of further development of the mental activity of children using interactive methods of teaching at all stages as one of the main conditions for training in preschool organizations is torn.

Keywords. Interactive technology, sense of responsibility, self-critical attitude, educational process, communication, Children, organization of preschool education, method, method, occupation, painting, group.

Interfaol usullar – ta`lim jarayonida o‘zaro muloqot qilishni anglatadi, bu o‘z navbatida kognitiv va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning alohida shakli hisoblanib, unda barcha ishtirokchilarni muloqot bilan qamrab olish nazarda tutiladi.

(ya`ni hamma erkin muloqotga kirisha oladi, shu bilan bir qatorda muammoni teng muhokama qilishda ishtiroki ta`minlanadi).

Interfaollik bolada javobgarlik hissini, o‘z-o‘ziga tanqidiy munosabatni shakllantiradi, muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishni rivojlantirib, o‘zining kuchli tomonlarini to‘g‘ri va holisona baholashga, bilimlaridagi ishlovga moyil jihatlarini ko‘ra bilishga o‘rgatadi. Interfaol darsning asosiy tarkibiy qismi bu dialogdir. Interfaol ta`lim jarayonida bolalar faol muloqotda bo‘ladilar, ba`zan bahslashadilar, suhbatdoshlari bilan o‘zaro tortishib, o‘z fikrini isbotlashga harakat qiladilar.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida mashg‘ulot o‘tishning asosiy shartlaridan biri uning barcha bosqichlarida o‘qitishning interfaol usullaridan foydalanib, bolalarning aqliy faoliyatini yanada rivojlantirishdir.

Maktabgacha yoshdagি bolalarga interfaol usullari orqali ta`lim berish - bu o‘quv faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, u asosida har bir bolaga o‘z muvaffaqiyatini his qila olishini va muayyan intellektual ishlarni bajarib, yuqori ko‘rsatkichlarga erishishi ta`minlab borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish amalga oshiriladi.

Interfaol o‘qitish metodlari deganda, bolalarga juftlikda, guruh bo‘lib yoki kichik guruhlarda suhbatlashish, bahslashish va turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish orqali o‘quv materiali ustida ishlash imkonini beradigan faoliyat tushuniladi.

Maktabgacha yoshdagи bolalar nutqini o‘stirish va rivojlantirishning interfaol usullari

Mikrofon - bu usul davomida bolalar o‘qituvchi bilan birgalikda davra hosil qiladilar mikrofonga taqlid qilishadi yoki o‘yinchoq mikrofonni bir-biriga uzatib, berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradilar.

Misol uchun, bola mikrofonni oladi, o‘zi haqida bir necha og‘iz gapiradi, so‘ng mikrofonni boshqa bolaga uzatadi. Bolalarning barcha mulohazalari qabul qilinadi, qanoatlantiriladi, lekin muhokama qilinmaydi.

Munozara - bu usulda bolalar aylana bo‘lib turib oladilar, mikrofonni bir-biriga uzatayotganlarida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradilar, keltirilgan mulohazalar muhokama qilinib, bir-birlariga savollar berishadi, ularga javob berayotib, muammoni hal qilish yo‘llarini birgalikda izlaydilar.

Juftlik – bu bolalar o‘zaro juftliklarni tuzib, berilgan topshiriqlarni bиргаликда bajaruvchi usul hisoblanadi, masalan, navbatma-navbat rasmni tasvirlab berish.

Zanjir - usul davomida bolalar berilgan topshiriqlarni muhokama qilishadi va o‘z takliflarini zanjirlarda ifodalashadi. Masalan, ular jadval bo‘yicha ertak tuzib, ertakning qanday borishini chizmalarda yoki shartli belgilarda ko‘rsatib boradilar.

Yumaloq qor – bunda bolalar kichik-kichik guruhlarga bo‘linib muammoli vaziyatni muhokama qilishadi yoki umumiyl vazifani bajarib, jamoaning har bir a`zosi uchun aniq harakatlar ketma-ketligini kelishib oladilar.

Deylik, ular uy qurishmoqchi, oldindan jamoaning har bir a`zosini harakatlar ketma-ketligi va u yoki bu bolaning qaysi rang bilan ishlashi haqida oldindan kelishib olinadi.

Fikrlarni sintez qilish - bu bolalarni kichik guruhlarga birlashtiradigan, ma`lum bir vazifani bajarishni yuklaydigan usul hisoblanadi. Masalan, qog‘ozga rasm chizishni olishimiz mumkin.

Bir guruh rasm chizishni boshlaydi va chizilgan rasmni boshqa guruhga o‘tkazadi, ikkinchi guruh a`zolari esa bajarilgan vazifani yakunlaydilar. Ish nihoyalangandan so‘ng, ular nima uchun rasm chizganliklari haqida umumiyl hikoya tuzadilar.

G‘oyalar xalqasi - bu interfaol o‘qitish usullaridan biri bo‘lib, bunda har bir bola yoki har bir guruh bitta vazifani bajaradi, masalan, bolalar yangicha usulda ertak tuzishadi, uni muhokama qilishadi, so‘ngra taklif yoki g‘oyalar bildirishadi. (masalan, ertakni yana qanday tugatish mumkin Bo‘g‘irsoq tirik qoladi yoki unga talkini yengib o‘tishga qanday yordam berish kerak va hokazo). Bu orqali bolalar mustaqil fikrlaydilar, o‘zaro guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini ham shakllanadi.

Birlashgan gul - bu usulda bolalar umumiy muammoni hal qilish uchun bir nechta guruhlarga bo‘linadilar: doskaga ma`lum bir tushunchaning tasviri tushirilgan gulning “o‘rtasi” yopishtiriladi. Masalan, “o‘yinchoqlar”, “gullar”, “mevalar”, “hayvonlar”.

Har bir guruh ushbu tushuncha atrofiga uni izohlovchi so‘zlarni yoki rasmlarni tanlab yopishtiradilar va eng katta gulni yaratgan jamoa g‘olib bo‘ladi (eng mos rasmlar yoki so‘zlarni to‘g‘ri tanlash bilan).

Ko‘p tarmoqli faoliyat usuli - bu bolalar bilan ishslash davomida turli xil analizatorlar (ko‘rish, eshitish, teginish, ta`m, hid bilish)ni majburiy ravishda ishtirokini ta`minlaydigan usuldir. Masalan, rasmni ko‘rishda quyidagi ketma-ketlikni qo‘llash maqsadga muvofiq: rasmda tasvirlangan narsalarni ajratib ko‘rsatish yoki ob`ektlarni turli analizatorlar tomonidan idrok etish orqali tasvirlash.

Bolalarga rasmda tasvirlangan barcha ob`ektlarni ko‘rib chiqqanlaridan so‘ng, quyidagicha ijodiy vazifalar beriladi:

- “qulochchinlar” orqali rasmdagi tovushlarni “tinglash”;
- tasvirlangan qahramonlar bilan virtual muloqotlar o‘tkazish;
- rasmda tasvirlangan gullarning “xushbo‘y hidini” his qilish;
- “tasvir mavzusidan tashqariga chiqish”;
- rasmni aqlan his etish: uning yuzasi (issiq, sovuq), ob-havo sharoitining qandayligi (shamolli, yomg‘irli, quyoshli, issiq, ayoz) va boshqalarni aniqlash.

Misol uchun, "O‘rmonda sayr" rasmi muhokama qilinayotganda, quyidagi savollarni berishingiz mumkin: Sizningcha, qizlar nima haqida gaplashmoqda? Daraxtlarning po‘stlog‘ini qanday tuzilganini ko‘rib chiqing. Barglarning shitirlashini, maynalarning chiyillashi va hokazolarni tinglang.

“Aqliy hujum” ham bolaning, ham kattalarning ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradigan usullardan biri. Bu usul ko‘proq murakkab muammolar yoki vaziyatlarni muhokama qilishda foydalidir.

Muammo ustida individual fikr yuritish uchun ma`lum bir vaqt beriladi (hatto 10 daqiqagacha ham berilsa bo‘ladi) va belgilangan vaqt o‘tgach, qaror haqida qo‘sishimcha ma`lumotlar yig‘iladi.

Bolalar – ya`ni "aqliy hujum" ishtirokchilari muammoni hal qilishning barcha ehtimolli bo‘lgan (va mantiq nuqtai nazaridan imkonsiz) variantlarini ko‘rib chiqishlari kerak, so‘ng ularni tinglab, yagona to‘g‘ri qaror qabul qilinadi.

“Nima? Qachon? Qayerda?” - usuli, undan foydalanish jarayonida hamkorlik, ijodiy muammolarni hal qilish, shaxsiy bilim va ko‘nikmalarni va o‘zaro fikrlarni almashish uchun juda kerakli usul hisoblanadi.

“Tarafdar va qarshilar” – ushbu bolalar bilan ishlash usuli davomida muammoni ikki xil usulda hal etish taklif qilinadi: tarafdarlar va qarshi tomonlar. Misol uchun, nima uchun qishni yoqtirishingizni ("tarafdar" argumenti) va nima uchun qishni yoqtirmasligingizni ("qarshi" argumenti) aytib berish.

“Agar mana bunday bo‘lganida ... nima bo‘ladi?” – bu usul bolalarga o‘ylash va o‘z taxminlarini ifoda etish taklif qilinadigan usul hisoblanib, bolalarga savol beriladi, masalan: “Agar yerdagi barcha daraxtlar yo‘q bo‘lib ketsa nima bo‘ladi?”, “Agar ertaklardagi yirtqich hayvonlar vegetarian bo‘lib qolsa nima bo‘ladi?” va hokazo.

Xayoliy rasm – ushbu usul mobaynida bolalar aylana bo‘lib turishga taklif qilinadi va har bir bola o‘z navbatida xayoliy rasmni tasvirlaydi (birinchi bolaga bo‘sh qog‘oz beriladi go‘yoki rasm chizilgandek, keyin esa varoqni navbatdagi sherigiga uzatadi, so‘ngra qog‘oz xayoliy rasm tasviri bilan o‘yining boshqa ishtirokchisiga beriladi va o‘yin shu tarzda davom etadi).

“Nima qilish kerak ...?” bu usulda, bolalar ob`ektlarning ko‘p qirrali xususiyatlarini anglashni o‘rganadilar. Masalan: “Qalamdan foydalanishning boshqa usulini tasavvur qiling-a? (ko‘rsatkich drijer tayoqchasi, termometr, tayoqcha va boshqalar).

Yangicha ifodalash – bu interfaol o‘qitish usulida, bolalar turli jamoalarga bo‘linishlari va o‘zlarini biron bir ob`ekt (kitoblar, qalamlar, stollar, qo‘g‘irchoqlar va boshqalar) o‘rnida tasavvur qilishlari kerak bo‘ladi va obrazlarini tanlangan rol nuqtai nazaridan ko‘rsatib berish talab etiladi.

Teskari ertak – faoliyat usulida bolalar ikki jamoaga bo‘linib, asosiy tushunchalarni qarama-qarshi tushunchalar bilan almashtirib, o‘z ertaklarini boshqacha

bir tarzda tuzishlari taklif qilinadi. Har bir jamoaga vazifa beriladi: jamoalar o‘z ertaklarini tuzadilar va ikkinchi jamoaning boshqacha tarzda tuzgan ertaklarini topishga harakat qiladilar.

Misol uchun: “Qadim zamonda chol va kampir yashagan ekan. Ularning Olapar laqabli kuchuklari bor ekan. Kunlardan bir kun Olapar ularga oddiy suyak emas, balki antiqa bir suyak keltiribdi. Kampir xursand bo‘lib uni qozonga solib qaynatibdi, qaynatibdi pishirolmabdi. Keyin Chol ham urinib ko‘ribdi lekin u ham uddalolmabdi. Birdan mushuk sakrab tushibdi va qozon ag‘darilib ketibdi, mushuk suyakni ham olib, qochib ketibdi. Chol va kampir rosa xafa bo‘lishibdi, shunda Olapar chol va kampirga: "Men sizga mazali ovqat pishirishingiz uchun yana bir suyak olib kelaman, lekin boshqacha emas, balki oddiysini keltiraman", – debdi.

Kollaj - bu usulda, bolalar ikki jamoaga bo‘linib, qog‘ozga mavjud materiallardan foydalanib o‘zlarining rasmlarini (masalan, noto‘g‘ri shakldagi figurani) chizishlari va rasm haqida 2-3 gap tuzishlari talab etiladi.

Reklama - bu o‘qitish usulida ham, bolalardan ikkita jamoaga bo‘linishlari va har bir jamoa a`zolari biror bir predmetni tanlab, uni boshqalarning e’tiborini jalb qiladigan barcha ijobjiy xususiyatlari hamda vazifalarini maqtashlari talab etiladi.

Afsuski, hozirgi kunda maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan ishslash davomida interfaol o‘qitish usullari haligacha yetarli darajada qo‘llanilmaydi. Buning o‘ziga yarasha bir qancha sabablari bor (A. Kononkoning fikricha):

- ko‘pchilik pedagog-tarbiyachilarning o‘z faoliyatida tushuntirish va illyustrativ ko‘rgazmalardan, monolog usullaridan foydalanishga moyillik ko‘rsatishlarining sustligi va boshqalardek talab va tamoyillarga so‘zsiz bo‘ysunish odati;
- tarbiyachilarning ko‘pchilik qismi innovatsion usullarga ishonmasligi va ulardan qo‘rqishi;
- ularni samarali qo‘llash va faol aniqlay olish, mas`uliyat bilan qaror qabul qilish, imtiyozlardan foydalanish tajribasining yo‘qligi;
- o‘zgalar nazarida kulgili, ojiz, tajribasiz “uquvsiz”ga o‘xshab qolishdan qo‘rqish;

- o‘z-o‘ziga baho berishning pastligi tarbiyachilarni haddan tashqari tashvishga solishi;
- yoki haddan tashqari tanqidiy munosabatda bo‘lish tendentsiyasi;
- yangi shart-sharoit va talablarga tez moslasha olmaslik;
- o‘z-o‘zini xolis baholay olish, o‘z imkoniyatlarini, xohish-istiklarini zamon talablari bilan moslashtirish qobiliyatining va o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasining shakllanmaganligi sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv jarayoniga interfaol usullarni joriy etish shart chunki:

- bugungi kunda tarbiyalanuvchilarni o‘qitishda maktabgacha ta`lim tizimi talablarini yangilashga bo‘lgan talab har qachongidan ham ortib bormoqda;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda tabaqlanish va individuallashtirishga qarshi kurashish;
- maktabgacha ta`lim sifatiga qo‘yiladigan talablarning o‘zgarib borishi, uni nafaqat bilimga tayyorgarlik darajasi, balki maktabgacha ta`lim tashkilotlari bitiruvchilarining boshlang‘ich bilish kompetensiyalarini, bilimlarini o‘z hayotida qo‘llay olishlari, ularni doimiy ravishda yangilash va boyitib borishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ochiq pedagogik forum: Pedagogik g‘oyalar festivali “Ochiq dars”: www.festival.1september.ru “Maktabgacha ta`lim o‘qituvchisi faoliyatini tashkil etishda AKTdan foydalanish: tajriba, muammolar, istiqbollar” maqolasi mualliflar Buzmakova Svetlana Vladimirovna, tarbiyachi Krivopalova Galina Aleksandrovna
2. Tarbiyalanuvchi va kompyuter / Ed. L.A.Leonova. M., 2004 yil.
3. A. Kononko Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kompyuter. Moskva: EKSMO nashriyoti, 2006 yil.